Ключевые слова: цифровая экономика, предприятия сферы услуг, эффективность управления, критерии оценки, система показателей, цифровая трансформация, электронные услуги, качество услуг, клиентоориентированность.

KIRISH

Raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmatlar sohasi milliy iqtisodiyotning eng jadal rivojlanayotgan hamda boshqaruv yondashuvlari tez yangilanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda ushbu sohada raqobatning kuchayishi, iste'molchilar ehtiyojlarining o'zgarishi va raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi xizmat ko'rsatish korxonalarida boshqaruv samaradorligini baholashga nisbatan yangicha yondashuvlarni talab etmoqda. Ilmiy adabiyotlarda raqamli transformatsiya korxonalarida faoliyatida faqat texnologik vositalarni joriy etish bilan cheklanmaydigan, balki boshqaruv jarayonlari, tashkiliy tuzilma, mijozlar bilan o'zaro munosabatlar va qiymat yaratish mexanizmlarining qayta shakllanishiga olib keluvchi murakkab jarayon sifatida talqin etiladi [3; 4]. Shu nuqtai nazardan, xizmat ko'rsatish korxonalarida faoliyatini baholashda an'anaviy moliyaviy natijalar bilan cheklanib qolish yetarli emas. Chunki raqamli muhitda boshqaruv samaradorligi korxonaning o'zgaruvchan sharoitga moslashuvchanligi, qaror qabul qilish tezkorligi, axborot resurslaridan samarali foydalanishi, xizmat ko'rsatish sifati hamda mijozga yo'naltirilganlik darajasi orqali ham namoyon bo'ladi. Shundan kelib chiqib, xizmat ko'rsatish korxonalarida boshqaruv samaradorligini baholash mezonlari va ko'rsatkichlarini zamonaviy talablar asosida aniqlashtirish hamda takomillashtirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda xizmatlar sohasining so'nggi yillardagi rivojlanish dinamikasi ham mazkur masalaning dolzarbligini yanada kuchaytirmoqda. 2025-yil yakunlariga ko'ra, respublikada ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 1 050,3 trln so'mni tashkil etib, 2024-yilga nisbatan 14,7 foizga oshgan. Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining 27 719,6 ming so'mga yetgani xizmatlarga bo'lgan talab va bozor sig'iminining izchil ortib borayotganini ko'rsatadi. Ayniqsa, aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining 22,7 foizga o'sishi raqamli texnologiyalar va axborot almashinuvi vositalarining xizmatlar sohasidagi ahamiyati ortib borayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar umumiy xizmatlar hajmining 56,7 foizini tashkil etgani mazkur sektorda boshqaruv samaradorligini baholash masalasi alohida amaliy ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi [11].

Mazkur sharoitda xizmat ko'rsatish korxonalarida boshqaruv samaradorligini baholashning nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirish, samaradorlikni ifodalovchi mezonlar va ko'rsatkichlarni tizimlashtirish hamda ularni raqamli iqtisodiyot talablari asosida talqin etish dolzarb ilmiy tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu munosabat bilan mazkur maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatish korxonalarida boshqaruv samaradorligini baholash mezonlari va ko'rsatkichlari ilmiy jihatdan yoritiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatish korxonalarida boshqaruv samaradorligini baholash masalasi zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarda tobora dolzarbroq tus olmoqda. Mavjud ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, mazkur masala asosan uch yo'nalishda o'rganilgan: birinchisi — raqamli transformatsiyaning korxonalarida faoliyatiga ta'siri; ikkinchisi — boshqaruv samaradorligini baholashning nazariy-uslubiy yondashuvlari; uchinchisi esa xizmatlar sohasi xususiyatlaridan kelib chiqib samaradorlikni o'lchash masalalaridir.

Birinchi yo'nalish doirasidagi tadqiqotlarda raqamli transformatsiyaning mohiyati va uning korxonalarida faoliyatiga ta'siri tahlil qilinadi. G. Vial raqamli transformatsiyani raqamli texnologiyalar ta'sirida yuzaga keladigan o'zgarishlarga tashkilotlarning strategik javobi sifatida talqin qiladi va bu jarayon qiymat yaratish yo'llari hamda tashkiliy tuzilmalarning qayta shakllanishiga olib kelishini ta'kidlaydi. P. Verhoef va hammualliflar esa digitization, digitalization va digital transformation bosqichlarini farqlab, raqamli transformatsiya korxonalarida strategiyasi, biznes modeli, mijozlar bilan munosabatlar va natijadorlik tizimiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini asoslaydi [3; 4]. Mazkur yondashuvlar xizmat ko'rsatish korxonalarida boshqaruv samaradorligini baholashda an'anaviy ko'rsatkichlar yetarli emasligini ko'rsatadi.

Ikkinchi yo'nalish boshqaruv samaradorligini baholash mezonlari va ko'rsatkichlari bilan bog'liq. R. Kaplan va D. Norton tomonidan taklif etilgan Balanced Scorecard konsepsiyasi samaradorlikni faqat moliyaviy natijalar bilan emas, balki mijozlar, ichki biznes jarayonlari, o'rganish va rivojlanish kabi yo'nalishlar orqali ham o'lchash zarurligini asoslab beradi. Bu yondashuv mazkur tadqiqot uchun ayniqsa muhim, chunki raqamli iqtisodiyot sharoitida boshqaruv samaradorligi moliyaviy natijalar bilan birga tezkorlik, jarayonlar sifati, raqamli integratsiya va rivojlanish salohiyatini ham qamrab olishi kerak. Shu ma'noda OECD ham raqamli transformatsiyani bitta ko'rsatkich bilan emas, turli indikatorlar tizimi orqali baholash zarurligini qayd etadi [5; 7].

Uchinchi yo'nalish xizmatlar sohasi xususiyatlaridan kelib chiqib samaradorlikni baholashga qaratilgan. Ma'lumki, xizmatlar sohasi nomoddiylik, iste'molchi bilan bevosita aloqadorlik, xizmat ko'rsatish va iste'mol jarayonining bir vaqtda yuz berishi hamda sifatning ko'p jihatdan subyektiv baholanishi bilan ajralib turadi. Shu bois ushbu sohada samaradorlikni aniqlashda faqat iqtisodiy natijalarga emas, balki xizmat sifati va mijoz qoniqishiga ham alohida e'tibor qaratiladi. A. Parasuraman, V. Zeithaml va L. Berry tomonidan ishlab chiqilgan SERVQUAL modeli xizmat sifati iste'molchilarning kutishi va ularning amaldagi qabul qilishi o'rtasidagi



tafovut orqali baholanishini ko'rsatadi [6]. Mazkur yondashuv xizmat ko'rsatish korxonalarida boshqaruv samaradorligini baholashda ishonchlilik, tezkorlik, kommunikativlik, xodimlar muomala madaniyati va mijozga yo'naltirilganlik kabi ko'rsatkichlarning ahamiyatini ochib beradi. Demak, xizmat ko'rsatish korxonalarida boshqaruv samaradorligini baholash tizimi moliyaviy natijalar bilan bir qatorda xizmat sifati va mijozlar bahosini ham o'z ichiga olishi zarur.

Mahalliy tadqiqotlarda esa asosan xizmatlar sohasini raqamlashtirish, elektron xizmatlarni kengaytirish, raqamli infratuzilmani rivojlantirish hamda sun'iy intellekt texnologiyalarini xizmat ko'rsatish jarayonlariga joriy etish masalalariga e'tibor qaratilgan. Xususan, muallifning avvalgi tadqiqotida xizmat ko'rsatish korxonalarida raqamli transformatsiya, elektron xizmatlar va AI texnologiyalarining boshqaruv samaradorligiga ta'siri nazariy va empirik jihatdan tahlil qilingan [8]. Mazkur tadqiqotda raqamli texnologiyalarni joriy etish natijasida xizmat ko'rsatish tezligi, operatsion xarajatlar, mijozlar qoniqishi va boshqaruv natijadorligida sezilarli o'zgarishlar kuzatilishi asoslab berilgan. Biroq unda asosan raqamli transformatsiyaning umumiy ta'siri yoritilgan bo'lib, aynan boshqaruv samaradorligini baholash mezonlari va ko'rsatkichlarini kompleks tizim sifatida shakllantirish masalasi alohida chuqur tahlil etilmagan. Shu jihatdan mazkur maqola avvalgi ilmiy natijalarni davom ettirgan holda, xizmat ko'rsatish korxonalarida boshqaruv samaradorligini baholash mezonlari va ko'rsatkichlarini aniqlashtirishga qaratilgani bilan farqlanadi.

Shunday qilib, adabiyotlar tahlili natijalari shuni ko'rsatadiki, xorijiy tadqiqotlarda raqamli transformatsiyaning nazariy asoslari, boshqaruv samaradorligini kompleks baholash yondashuvlari va xizmat sifati ko'rsatkichlari yetarlicha yoritilgan. Biroq ushbu nazariy qarashlarni O'zbekiston sharoitidagi xizmat ko'rsatish korxonalarini faoliyatiga moslashtirish, boshqaruv samaradorligini baholash mezonlari va ko'rsatkichlarini yagona tizimga keltirish hamda ularning amaliy qo'llanish imkoniyatlarini aniqlashtirish zarurati saqlanib qolmoqda. Shu jihatdan mazkur maqola raqamli transformatsiya, boshqaruv samaradorligini baholash va xizmat sifati bilan bog'liq yondashuvlarni o'zaro uyg'unlashtirish asosida xizmat ko'rsatish korxonalarini uchun mos mezonlar va ko'rsatkichlar tizimini aniqlashtirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatish korxonalarida boshqaruv samaradorligini baholash mezonlari va ko'rsatkichlarini aniqlash hamda ularni ilmiy asosda tizimlashtirish maqsadida kompleks metodologik yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy asosini raqamli transformatsiya konsepsiyasi, boshqaruv samaradorligini kompleks baholash yondashuvlari hamda xizmat sifati nazariyalari tashkil etdi. Tadqiqot jarayonida xorijiy va mahalliy ilmiy adabiyotlar, rasmiy statistik ma'lumotlar, normativ-huquqiy hujjatlar va xalqaro tashkilotlar hisobotlari o'rganildi. Ularni tahlil qilishda tahlil va sintez, qiyosiy tahlil, ilmiy abstraksiyalash, mantiqiy umumlashirish, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi.

Boshqaruv samaradorligini baholashda tizimli yondashuv asos qilib olinib, ko'rsatkichlar iqtisodiy, tashkiliy, xizmat sifati, mijozga yo'naltirilganlik hamda raqamli rivojlanish guruhlariga ajratildi. Shu asosda an'anaviy iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda xizmat ko'rsatish tezkorligi, mijozlar qoniqishi, takroriy murojaatlar ulushi, raqamli xizmatlardan foydalanish darajasi va boshqaruv qarorlarini qabul qilish tezligi kabi ko'rsatkichlar ham tadqiqot doirasiga kiritildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatish korxonalarida boshqaruv samaradorligini baholash masalasi ko'p omilli yondashuvni talab etadi. Chunki mazkur sohada samaradorlik endilikda faqat daromad yoki foyda bilan emas, balki xizmat ko'rsatish tezligi, mijozlar qoniqishi, xarajatlar tejalishi, jarayonlar shaffofligi va raqamli kanallardan foydalanish darajasi bilan ham belgilanmoqda. Shu nuqtai nazardan, tadqiqot natijalari avvalo xizmatlar sohasining umumiy rivojlanish dinamikasini, so'ngra uning tarkibiy o'zgarishlarini va nihoyat boshqaruv samaradorligini ifodalovchi amaliy ko'rsatkichlarni tahlil qilish asosida yoritiladi.

1-jadval. O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari¹

Ko'rsatkichlar	Yillar			2025/2023 o'zgarishi
	2023	2024	2025	
Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi, trln so'm	470,3	818,4	1 050,3	2,23 baravar
O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %	113,7	112,9	114,7	+1,0 p.p.
Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi, mln so'm	17,8	22,0	27,7	1,55 baravar

1 Manba: muallif tomonidan tuzildi.

Kichik tadbirkorlikning xizmatlar hajmidagi ulushi, %	47,7	57,0	56,7	+9,0 p.p.
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi, mlrd so'm	39 064,4	56 174,2	79 485,5	2,03 baravar
Moliyaviy xizmatlar hajmi, mlrd so'm	107 290,6	135 509,5	171 867,0	1,60 baravar

1-jadval ma'lumotlari 2023–2025-yillarda O'zbekistonda xizmatlar sohasi barqaror va yuqori sur'atlarda rivojlanganini ko'rsatadi. Xususan, ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining 470,3 trln so'mdan 1 050,3 trln so'mga yetgani ushbu tarmoqning milliy iqtisodiyotdagi mavqei sezilarli darajada mustahkamlanganidan dalolat beradi. Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining 17,8 mln so'mdan 27,7 mln so'mga oshgani esa xizmatlarga bo'lgan talabning kengayib, bozor sig'imi chuqurlashayotganini anglatadi. Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar hajmidagi ulushi yuqori darajada saqlanib qolayotgani xizmatlar sektorida boshqaruv samaradorligini baholash mezonlari amaliyotga yaqin, sodda va qo'llashga qulay bo'lishi kerakligini ko'rsatadi. Aloqa va axborotlashtirish hamda moliyaviy xizmatlar hajmining nisbatan tez o'sishi esa xizmatlar tizimida raqamli komponent kuchayib borayotganini tasdiqlaydi. Demak, xizmat ko'rsatish korxonalarida boshqaruv samaradorligini baholashda an'anaviy iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda raqamli rivojlanish, tezkorlik va mijozga yo'naltirilganlik indikatorlarini ham hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

2-jadval. Xizmat ko'rsatish korxonalarida boshqaruv samaradorligini baholash mezonlari va ko'rsatkichlari tizimi²

Mezonlar	Asosiy ko'rsatkichlar	Ko'rsatkichning mazmuni	O'lchov birligi	Baholash yo'nalishi
Iqtisodiy samaradorlik	rentabellik darajasi; xarajatlar darajasi; bir xodimga to'g'ri keladigan xizmat hajmi	Korxonada faoliyatining moliyaviy natijadorligi va resurslardan foydalanish samaradorligini ifodalaydi	%, mln so'm	Yuqori bo'lishi ijobiy; xarajatlar bo'yicha past bo'lishi ijobiy
Tashkiliy samaradorlik	xizmat ko'rsatish vaqti; qaror qabul qilish tezligi; jarayonlardagi xatolar ulushi	Boshqaruvning operativligi va ichki jarayonlar muvofiqligini aks ettiradi	minut, soat, %	Past bo'lishi ijobiy
Xizmat sifati	xizmat sifati indeksi; standartga muvofiqlik darajasi; qayta ishlashlar ulushi	Xizmatning belgilangan talab va me'yorlarga mosligini ko'rsatadi	indeks, %	Yuqori bo'lishi ijobiy; qayta ishlashlar bo'yicha past bo'lishi ijobiy
Mijozga yo'naltirilganlik	mijozlar qoniqishi darajasi; takroriy murojaatlar ulushi; shikoyatlar soni	Korxonaning iste'molchilar ehtiyojini qondirish va ularni saqlab qolish darajasini ifodalaydi	%, indeks, dona	Yuqori bo'lishi ijobiy; shikoyatlar bo'yicha past bo'lishi ijobiy
Raqamli rivojlanish darajasi	onlayn operatsiyalar ulushi; elektron xizmatlardan foydalanish darajasi; avtomatlashtirilgan jarayonlar ulushi	Korxonaning raqamli texnologiyalarni joriy etish va ulardan foydalanish darajasini ko'rsatadi	%	Yuqori bo'lishi ijobiy
Innovatsion moslashuvchanlik	AI, CRM va chatbotlardan foydalanish darajasi; yangi xizmatlar joriy etish faolligi	Korxonaning zamonaviy boshqaruv vositalarini qabul qilish va yangilanish salohiyatini ifodalaydi	%, dona	Yuqori bo'lishi ijobiy
Kadrlar samaradorligi	xodimlar unumdorligi; raqamli kompetensiya darajasi	Xodimlarning natijadorligi va raqamli ko'nikmalar darajasini aks ettiradi	mln so'm, %, indeks	Yuqori bo'lishi ijobiy
Strategik barqarorlik	bozor ulushi; xizmatlar diversifikatsiyasi darajasi	Korxonaning uzoq muddatli raqobatbardoshligi va barqaror rivojlanish imkoniyatlarini ko'rsatadi	%, indeks, dona	Yuqori bo'lishi ijobiy

2-jadvalda keltirilgan mezonlar va ko'rsatkichlar tizimi xizmat ko'rsatish korxonalarida boshqaruv samaradorligini kompleks baholash zarurligini ko'rsatadi. Jadvaldan ko'rinadiki, samaradorlikni aniqlash faqat moliyaviy natijalar bilan cheklanmaydi, balki tashkiliy tezkorlik, xizmat sifati, mijozga yo'naltirilganlik va raqamli rivojlanish darajasi bilan ham belgilanadi. Ayniqsa, raqamli iqtisodiyot sharoitida onlayn operatsiyalar ulushi, elektron xizmatlardan foydalanish va avtomatlashtirilgan jarayonlar boshqaruv natijadorligining muhim ko'rsatkichlariga aylanmoqda. Shu bois xizmat ko'rsatish korxonalarida boshqaruv samaradorligini baholash tizimi moliyaviy va nomoliyaviy indikatorlarning uyg'unligiga asoslanishi maqsadga muvofiqdir.

2 Manba: muallif ishlanmasi.



Mazkur mezonlar tizimi amaliy tahlil uchun metodik asos bo'lib xizmat qiladi. Chunki faqat rentabellik yoki foyda kabi ko'rsatkichlarga tayangan baholash xizmat ko'rsatish korxonalarining haqiqiy natijadorligini to'liq aks ettirmaydi. Zamonaviy raqamli muhitda boshqaruv samaradorligi xizmat ko'rsatish tezligi, xatolar darajasi, mijozlar qoniqishi va raqamli platformalardan foydalanish darajasi bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi. Shuning uchun keyingi bosqichda ushbu mezonlarning amaliy natijalari empirik ma'lumotlar asosida ko'rib chiqildi.

3-jadval. Xizmat ko'rsatish korxonalarida raqamli transformatsiya va AI texnologiyalarining boshqaruv samaradorligiga empirik ta'siri³

Ko'rsatkichlar	Joriy etilishidan oldin	Joriy etilgandan keyin	O'zgarish	Boshqaruv samaradorligiga ta'siri
Xizmat ko'rsatish vaqti	25 minut	7 minut	3,5 baravar tezlashdi	Tashkiliy tezkorlik oshdi
Mijozlar qoniqishi darajasi	68 %	87 %	+19 %	Mijozga yo'naltirilganlik kuchaydi
Operatsion xarajatlar	100 %	82 %	18 % kamaydi	Iqtisodiy samaradorlik yaxshilandi
Jarayonlardagi xatolar ulushi	100 %	32 %	68 % ga kamaydi	Xizmat sifati va ichki nazorat kuchaydi
Onlayn operatsiyalar ulushi	28 %	71 %	+43 foiz punkt	Raqamli rivojlanish darajasi oshdi
Chatbotlardan foydalanish	—	operatorlar yuklamasi 55 % kamaydi	ijobiy	Operativ aloqa sifati yaxshilandi
AI-CRM joriy etilishi	—	qayta xaridlar 28 % oshdi	ijobiy	Mijozni saqlab qolish darajasi oshdi
Predictive analytics qo'llanilishi	—	talab prognozi aniqligi 42 % oshdi	ijobiy	Qaror qabul qilish sifati yaxshilandi
AI joriy etilishi va boshqaruv samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlik	—	$r = 0,78$	kuchli ijobiy bog'liqlik	AI samaradorlikka sezilarli ta'sir qiladi

3-jadval ma'lumotlari raqamli transformatsiya va AI texnologiyalarining xizmat ko'rsatish korxonalarida boshqaruv samaradorligiga bevosita va sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Xususan, xizmat ko'rsatish vaqtining 25 minutdan 7 minutgacha qisqarishi boshqaruvning tashkiliy tezkorligi sezilarli ravishda oshganini ko'rsatadi. Mijozlar qoniqishining 68 foizdan 87 foizga yetgani esa elektron xizmatlar va avtomatlashtirilgan servis vositalari iste'molchi ehtiyojiga moslashuvchanlikni kuchaytirganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, operatsion xarajatlarning 18 foizga kamayishi va jarayonlardagi xatolar ulushining 68 foizga qisqarishi raqamli boshqaruv vositalari iqtisodiy natijadorlikni ham yaxshilashini ko'rsatadi.

Empirik natijalar AI texnologiyalarining boshqaruv samaradorligiga alohida ta'sirini ham ochib beradi. Jumladan, chatbotlardan foydalanish operatorlar yuklamasini 55 foizga kamaytirgan, AI-CRM tizimlari qayta xaridlarni 28 foizga oshirgan, predictive analytics esa talab prognozi aniqligini 42 foizga yaxshilagan. Aniqlangan $r = 0,78$ darajadagi kuchli ijobiy bog'liqlik AI vositalaridan foydalanish kengaygani sari boshqaruv samaradorligi ham ortishini ko'rsatadi. Demak, xizmat ko'rsatish korxonalarida boshqaruv samaradorligini baholash tizimiga tezkorlik, xarajatlar tejalishi, mijozlar qoniqishi, onlayn operatsiyalar ulushi va AI vositalaridan foydalanish kabi ko'rsatkichlarni kiritish ilmiy hamda amaliy jihatdan asosli hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatish korxonalarida boshqaruv samaradorligini baholashga nisbatan an'anaviy yondashuvlar endilikda yetarli emas. Chunki zamonaviy sharoitda korxonalar samaradorligi faqat moliyaviy natijalar bilan emas, balki xizmat ko'rsatish tezligi, jarayonlarning uzluksizligi, mijozlar qoniqishi, raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasi hamda boshqaruvning innovatsion moslashuvchanligi bilan ham belgilanadi. Shu ma'noda, tadqiqot davomida xizmat ko'rsatish korxonalarida uchun boshqaruv samaradorligini baholashning ko'p omilli tizimi zarurligi ilmiy jihatdan asoslandi.

Tahlillar natijasida, birinchidan, O'zbekistonda xizmatlar sohasi izchil va yuqori sur'atlarda rivojlanayotgani, bu esa mazkur tarmoqda boshqaruv samaradorligini muntazam baholab borish zaruratini kuchaytirayotgani aniqlandi. Ikkinchidan, boshqaruv samaradorligini baholashda iqtisodiy, tashkiliy, sifat, mijozga yo'naltirilganlik

3 Zayavitdinova N.M. Xizmat ko'rsatish korxonalarida raqamli transformatsiya, elektron xizmatlar va AI texnologiyalarining boshqaruv samaradorligiga ta'siri // Marketing. 2025. №11. B. 398–408 asosida muallif tomonidan tuzildi.

va raqamli rivojlanish mezonlarini o'zaro bog'liq holda qo'llash maqsadga muvofiq ekani asoslandi. Uchinchidan, empirik natijalar raqamli transformatsiya va AI texnologiyalarining xizmat ko'rsatish korxonalarida boshqaruv samaradorligiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi: xizmat ko'rsatish tezligi oshgani, xarajatlar qisqargani, mijozlar qoniqishi yaxshilangani va boshqaruv qarorlarini qabul qilish sifati ortgani kuzatildi.

Shu bilan birga, tadqiqot xizmat ko'rsatish korxonalarida boshqaruv samaradorligini baholash metodikasini takomillashtirishda raqamli indikatorlarni alohida blok sifatida kiritish zarurligini ko'rsatdi. Ya'ni onlayn operatsiyalar ulushi, elektron xizmatlardan foydalanish darajasi, avtomatlashtirilgan jarayonlar salmog'i, AI, CRM va chatbotlardan foydalanish holati kabi ko'rsatkichlar endilikda boshqaruv natijadorligini ifodalovchi muhim indikatorlarga aylanmoqda.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi ilmiy-amaliy takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiqdir.

Birinchidan, xizmat ko'rsatish korxonalarida boshqaruv samaradorligini baholashning yagona kompleks indikatorlar tizimini joriy etish lozim. Mazkur tizim iqtisodiy natijadorlik bilan bir qatorda tashkiliy tezkorlik, xizmat sifati, mijozga yo'naltirilganlik va raqamli rivojlanish ko'rsatkichlarini ham qamrab olishi kerak.

Ikkinchidan, korxonalarda raqamli boshqaruv vositalaridan foydalanish samaradorligini alohida monitoring qilish zarur. Xususan, onlayn operatsiyalar ulushi, elektron xizmatlar qamrovi, avtomatlashtirilgan jarayonlar soni, CRM tizimlari, chatbotlar va AI asosidagi analitik vositalardan foydalanish darajasi bo'yicha muntazam ichki tahlil olib borilishi lozim.

Uchinchidan, boshqaruv samaradorligini oshirishda mijozga yo'naltirilgan indikatorlarga ustuvor ahamiyat berish lozim. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, xizmatlar sohasida mijozlar qoniqishi, takroriy murojaatlar ulushi, shikoyatlar soni va xizmat sifati ko'rsatkichlari korxonalar raqobatbardoshligining muhim omillari hisoblanadi.

To'rtinchidan, xizmat ko'rsatish korxonalarida kadrlarning raqamli kompetensiyasini oshirish zarur. Shu bois xodimlarning AI, CRM, elektron hujjat aylanishi, ma'lumotlar tahlili va mijozlar bilan raqamli aloqa vositalari bo'yicha malakasini oshirish boshqaruv samaradorligini oshirishning muhim sharti sifatida qaralishi kerak.

Beshinchidan, xizmat ko'rsatish korxonalarida boshqaruv samaradorligini baholash natijalarini strategik rejalashtirish bilan bog'lash lozim. Ya'ni baholash faqat nazorat vositasi bo'lib qolmasdan, balki yangi xizmatlarni joriy etish, bozor ulushini oshirish, raqamli transformatsiya ustuvor yo'nalishlarini tanlash va resurslarni taqsimlashda asosiy axborot bazasi sifatida xizmat qilishi kerak.

Oltinchidan, hududiy xususiyatlarni hisobga olgan holda differensial baholash yondashuvini qo'llash maqsadga muvofiqdir. Chunki xizmatlar bozori hajmi, raqamli infratuzilma, iste'molchilar talabi va kadrlar salohiyati hududlar bo'yicha bir xil emas. Shu bois boshqaruv samaradorligini baholashda umumiy mezonlar bilan birga hududiy sharoitni aks ettiruvchi qo'shimcha indikatorlar ham inobatga olinishi zarur.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatish korxonalarida boshqaruv samaradorligini baholash metodikasini takomillashtirish bugungi kunda nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb ekanini ko'rsatdi. Taklif etilgan mezonlar va ko'rsatkichlar tizimi xizmat ko'rsatish korxonalarini faoliyatini baholashda, raqamli transformatsiya natijalarini aniqlashda hamda boshqaruv qarorlarining sifatini oshirishda muhim uslubiy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-6079-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-5030957?ONDATE=12.08.2021>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-fevraldagi "Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-78-son Qarori. <https://lex.uz/docs/-7408455>
3. Vial, G. Understanding digital transformation: A review and a research agenda // The Journal of Strategic Information Systems. 2019. Vol. 28, No. 2. P. 118–144.
4. Verhoef, P. C., Broekhuizen, T., Bart, Y., Bhattacharya, A., Dong, J. Q., Fabian, N., Haenlein, M. Digital transformation: A multidisciplinary reflection and research agenda // Journal of Business Research. 2021. Vol. 122. P. 889–901.
5. Kaplan, R. S., Norton, D. P. The Balanced Scorecard—Measures That Drive Performance // Harvard Business Review. 1992. January–February. P. 71–79.
6. Parasuraman, A., Zeithaml, V. A., Berry, L. L. SERVQUAL: A Multiple-Item Scale for Measuring Consumer Perceptions of Service Quality // Journal of Retailing. 1988. Vol. 64, No. 1. P. 12–40.
7. OECD. Measuring the Digital Transformation: A Roadmap for the Future. Paris: OECD Publishing, 2019. DOI: 10.1787/9789264311992-en.
8. Zayavitdinova, N. M. Xizmat ko'rsatish korxonalarida raqamli transformatsiya, elektron xizmatlar va AI texnologiyalarining boshqaruv samaradorligiga ta'siri // Marketing. 2025. № 11. B. 398–408.
9. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati. 2023-yil yanvar–dekabr. Toshkent, 2024.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari. 2024-yil yanvar–dekabr. Toshkent, 2025.
11. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari. 2025-yil yanvar–dekabr. Toshkent, 2026.

muhandislik

& iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100